



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Сурхондарё вилояти

190100, Termiz shahri , Taraqqiyot ko'chasi, 42-uy, Termiz shahri, AT "Турон" bank Tel-Fax:
(376)-22-3-24-87, 22-3-06-42, 22-3-24-75 Mail: surxonekspertiza@mail.ru www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: NURALIYEV NURBEK BAXTIYOROVICH

Sana:31-10-2023 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 128113

Obyekt nomi «Surxondaryo viloyati Bandixon tumani "Limonzor" MFY dagi 38-sonli umumta'lim maktabiga 140 o'rinli qo'shimcha bino qurish bilan rekonstruksiya qilish ishchi loyihasi bo'yicha»

Buyurtmachi - Surxondaryo viloyati hokimiyati "Yagona buyurtmachi xizmati"
" DUK

Bosh loyihachi - "Janub Surxon Universal" MChJ

Litsenziya AL- 000107 sonli, 2019 yil 19 iyulda O'zbekiston Respublikasi
Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - Byudjet mablag'lari

Bosh pudratchi - Tanlov savdo natijalarida ko'ra aniqlanadi

Qurilish turi Rekonstruksiya

Murojaat raqami: № 117819

1. Loyihalash uchun asos

1.1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 13 mart kuni Surxondaryo viloyatiga tashrifi yakunlari bo'yicha berilgan 13-sonli topshiriqlar bayoni.

1.2 Surxondaryo viloyati Xalq deputatlari Kengashining 2023 yil 13 iyuldagi VI-75-128-8-0-K/23 Qarori.

1.3. 2023 yilda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, Surxondaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi hamda qurilish va uy-joy kommunal xizmat boshqarmalari kelishilgan loyiha topshirig'i.

1.4. Buyurtmachining 2023 yil 25 sentyabrdagi 01-08/1274 sonli xati.

1.5. 2023 yil 8 avgustda Surxondaryo viloyati xokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK tomonidan tasdiqlangan 16 sonli narxlar kelishuvi bayonnomasi.

1.6 Surxondaryo viloyat qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2023 yil 14 avgust sanasida berilgan 1722-1722203-73055 -sonli me'moriy rejalashtirish topshirig'i.

1.7 Ob'ektning muhandislik tarmoqlari ta'minoti uchun tegishli mutassadi tashkilotlar tomonidan berilgan texnik shartlar.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Yo'riqnoma.

2.2. Qurilishni tashkillashtirish loyihasi.

2.3. Smeta hujjatlari.

2.4. MQ, TX, IV, YoS, EYo bo'limlari bo'yicha ishchi chizmalar.

2.5. Bosh reja, tashqi muhandislik tarmoqlar, yordamchi bino va inshootlar bo'yicha chizmalar.

2.6. Qurilish maydonning muhandislik geologik sharoitlari xulosasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish maydoni ta'rifi:

- qurilish maydoni IV A klimatik hududga tegishli,
- havoning qishgi hisobiy harorati- (- 11oS),
- shamol oqimi myo'riy tezligi - 0.38 kPa,
- qorning myo'riy yuki - 0.50 kPa,
- qurilish hududi zilzilalikligi – 7bal.

2023 yilda “Surxon geologiya laboratoriyasi” MChJ tomonidan o'tkazilgan izlanishlar natijasiga ko'ra qurilish maydonning muhandislik geologik sharoitlari quyidagicha ifodalanadi:

- tuproqning zilzilaviy toifasi -III,
- qurilish maydonining hisobiy zilzilalikligi –8 bal,
- asos grundi – sarg'ish-lessovidnqe suglinki, lyogkie, korichnevogo sveta, ot tvyordqx do tugoplastichnyx, sredneporstye, prosadochnye, zalegayuyshie vyshе UPV.
- cho'kuvchanlik turi- II,
- yer osti suvi yer yuzasidan 10,0 m chuqurlik aniqlangan,
- tuproqlari 10178-85* GOST bo'yicha portlandsementli betonlarga o'rtacha agressiv.

3.2. Texnologik yechimlari

Maktab o'quvchilarini bilim olishiga qulay sharoit yaratish maqsadida bajarilmoqda.

Loyihalanayotgan 180 o'rinli o'quv binosi quyidagi tartibda:

- 2 qavatli 8 ta 22 o'rinli o'quv xonalari, o'qituvchilar xonasi, 10 o'rnili informatika, psixolog xonasi, direktor xonasi, o'qituvchilar xonasi, tambur, vestibul va yo'lak;

Binoga nogiron va kam harakatlanuvchi kishilarning kirishi imkoniyatini yaratish maqsadida, binoning asosiy kirishiga "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8-11 moddalariga, 2001yil 30-apreldagi 25 sonli O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitekturasining buyrug'iga va "Nogironlar va aholining kam harakatlanuvchi qatlami ehtiyojlarini hisobga olib yashash muhitni loyixalashtirish" nomli 2.07.02-96 sonli QMQ talablari asosida tutqichli to'siq bilan jihozlangan nishab yo'l qurish ko'zda tutilgan.

3.3. Manzili

Qurilish Surxondaryo viloyati Bandixon tumani "Limonzor" MFY dagi 38-sonli umumta'lim maktabiga 140 o'rinli qo'shimcha bino qurish bilan rekonstruksiya qilish mavjud hududida tuman qurilish bo'limining 2023 yil 27 iyuldagi 1722203-123206-sonli ruxsatnomasiga asosan amalga oshiriladi.

3.4. Hudud bosh rejasi

Bosh reja bo'yicha 140 o'rinli o'quv binosi, ko'mirxona, MTU va tarmog'ini tortish, videokuzatuv tizimini va TP hamda ASKUE o'rnatish, tashqi suv tarmog'ini tortish, 50m³ yong'in hovuzi, yong'inga qarshi qalqon o'rnatish, KL-0,4kv, tashqi yoritish chorqlari, quyosh panellarini o'rnatish, setkali panjara o'rnatish, obodonlashtirish ishlari ko'zda tutilgan.

3.5. Asosiy konstruktiv yechimlar va parametrlar

Loyihalashtirilayotgan maktab binosi – ikki qavatli, to'g'ri to'rtburchak shaklida, devorlar o'qlari bo'yicha o'lchamlari 17.4x15.6m, xonalar balandligi 3.0m va binoning birinchi qavati poli yuzasidan tomi tepasigacha balandligi 8.87m, konstruktiv yechimlar - poydevori tasmasimon quyma betondan, devorlari pishgan g'ishtdan, tom yopmalari va ora yopmalari yig'ma temir beton plitalaridan, issiqlik qobig'i keramzit shag'aldan qalinligi 250mm, tomi yog'och konstruksiyali bo'lib, polimer qoplamali profto'shama bilan qoplanadi.

Loyihalashtirilayotgan binoning zilzilaga bardoshligi bikr tarzda konstruksiya yaratilishi bilan ta'minlanadi. Binoning bikrligi bo'ylama va ko'ndalang devorlar tizimi bilan hamda yig'ma temir beton plitalardan iborat tom yopmalari va ora yopmalarining antiseysmik belbog'larga betonlab qotirilishi natijasida hosil bo'ladigan bikr diski bilan ta'minlanadi. Devorlar armaturalar bilan kuchaytiriladi.

Cho'kuvchanlikka qarshi tadbirlar 2.02.01-96 QMQ talablariga asosan inobatga olingan.

Beton va temir beton konstruksiyalari tuproqqa ko'miluvchi qismlarining yemirilishga qarshi himoyasi uchun poydevor tagiga to'shama materiallar bilan 2 qatlamli va tik yuzasiga 2 qatlamli bitum bilan gidroizolyasiya qilinishi inobatga olingan.

Ob'ektdan favqulotda holat sharoitida foydalanish kafilligi (mazkur holatda seysmik ta'sirchanlik) bino va inshootlarning "Seysmik hududlarda qurilish" nomli 2.01.03-96sonli QMQ talablari asosida qo'shimcha kuchaytirilishlari bilan ta'minlanadi.

Yong'inga qarshi tadbirlar nomli 2.01.02-04 sonli ShNQ talablariga asosan quyidagi tadbirlar ko'zda tutilgan:

- 2 marta olingan bazalt materialli ish xajmi chiqarib tashlandi.
- quyosh panelida hisoblangan invertor ish quvvati panel bilan quvvati moslashtirildi, va narxlari aniqlashtirildi.
- barcha yog'och qurilmalariga yong'indan himoyalash voisitalari bilan ishlov berish,
- yong'inga qarshi signalizasiya tarmog'ini qurish,
- o't o'chiruvchi vositalarning binolarga yaqinlashish sharoitini yaratish,

- 50m3 yongin xovuzlari qurish.

3.6. Energiya samaradorlik

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan, shulardan asosiylari:

- tom qismiga 250 mm qalinlikda keramizit qoplamasi to'shash,
- binoda tambur ko'zda tutilgan;
- tashqi devorlarda 2 kamerali oyna paektli plastik profilli deraza va eshik romlari o'rnatish;
- zichligi $\gamma=120\div125\text{kg/m}^3$, qalinligi 60mm bo'lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);
- FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan,
- yoritishda energiya tejamkor elektr chiroqlari ko'zda tutilgan.

3.7. Qurilish davomiylik muddati

QTL taqvimiy jadvaliga ko'ra qurilish davomiylik muddati 6 oyni tashkil qiladi.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Elektr toki ta'minoti – transformator podstantsiyasi o'rnatilishi va ulash nuqtasi qilib PS “Гулистон Markaz” 110/10/6 kV F-4 10 kV HEUYning eng yaqin tayanchi olinsin, agar tayanchlar yakka bo'lsa uni anker tayanchiga almashtirilsin ulanishi bilan amalga oshiriladi, elektr energiyasini o'lchash uchun ASKUE tizimini o'rnatilishi, tejamkorlik maqsadida energiya tejaydigan lampalardan foydalanishi ko'zda tutilgan.

Ichimlik suvi ta'minoti mahalla hududidagi suv inshootga ulanish bilan amalga oshiriladi.

Issiqlik ta'minoti - 1 dona qozon bilan amalga oshiriladi, isitish moslamalari zamonaviy energiya tejamkor radiatorlardan iborat, qattiq turli yoqilg'i.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Loyihaviy yechimlar Surxondaryo viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaharsozlik Kengashi ishchi organiing 2023 yil 30-oktabrdagi 101061492 sonli xulosasi.

5.2. Surxondaryo viloyat ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Davlat ekologik ekspertizasining 2023 yil 11 oktabrdagi 01-19/01-991 sonli xulosasi.

5.3. Ishchi loyihaning texnologik qismi buyurtmachi, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi va maktab direktori bilan 2023 yilda kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1.Ekspertizadan o'tkazish jarayonida lokal ekspert xulosalar bo'yicha aniqlangan kamchiliklar va takliflar asosida loyihachi tomonidan ishchi loyihaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi, ulardan asosiysilari:

- galereya binosi ajratib ko'rsatildi,
- ekologiya xulosasi taqdim etildi,
- PZ ayrim ko'rsatgichlari loyihaviy yechimlar asosida to'g'irlandi,

- Texnologik yechimlar ta'lim boshqarmasi bilan kelishilgan,
- PTKlar va antiseysmik belbog'lar armaturalanishi, SG-1ning qadami 8 balga ishlandi,
- betonlanadigan maydonlar o'lchamlari bilan asoslandi,
- resurs ko'rsatkichlarining narxi (mashinalar va mexanizmlarning ishlashi, transport harajatlari, materiallar va texnologik jihozlar) buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan o'rtacha narxlar to'g'risidagi ma'lumotga muvofiq to'g'rilandi.
- Lokal resurs me'yorlarining elementlari aniqlashtirilib, tuzatishlar kiritildi.
- Taqdim etilgan sxemada binoning joylashuvi ShNK-2.07.01-03, ShNK-2.01.0204, SanPin №0350-17 normalari bo'yicha ko'rib chiqildi,

6.2. Qurilish qiymati hisobi

Taqdim etilgan loyihaga ko'ra qurilish qiymati QQS (qo'shimcha qiymat solig'i) bilan **2255734,801 ming so'm**ni tashkil qilgan bo'lib, ekspertiza natijasiga ko'ra **225 684,005 ming so'm** miqdorida kamayib **2030050,796 ming so'm** tasdiqlash uchun tavsiya etildi, shu jumladan:

- qurilish montaj ishlari -1 726 233,670 ming so'm,
- qo'shimcha qiymat solig'i -207 148,040 ming so'm,
- buyurtmachining boshqa xarajatlari-96 669,086 ming so'm.

Kamayishga ayrim ish turlari bo'yicha hajmlariga va lokal resurs ko'rsatigichlari me'yorlariga, hamda qurilish materiallari narxlariga aniqlik kiritilganligi natijasida erishildi.

6.3. Buyurtmachi va bosh loyihachi qurilish boshlanishidan oldin,

- buyurtmachining boshqa harajatlari miqdorini 4.01.16-19 sonli ShNQ talablariga asosan aniqlashi shart;

6.4. Buyurtmachi loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentyabrdagi 579 sonli qarorining 7 ilovasiga muvofiq:

- yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugaganidan so'ng nazorot o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi;

ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan xujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1 Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Surxondaryo viloyati Bandixon tumani "Limonzor" MFY dagi 38-sonli umumta'lim maktabiga 140 o'rinli qo'shimcha bino qurish bilan rekonstruksiya qilish ishchi loyihasi bo'yicha" ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya qilinadi.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 6 martdagi 261 sonli qaroriga va ShNK 04.01.06-09 asos tavsiya qilinayotgan qiymati pudrat shartnomasi tuzish uchun asos bo'la olmaydi va tanlov savdosining boshlang'ich qiymatini yakuniy aniqlash huquqi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi.

Bosh mutaxassis: MAXMUDOV ISMOIL SOATQUL O'G'LI

Ishtirokchi ekspertlar:

SHAMSIYEV SHOXRUX SHODMONOVICH

ORIPOV FAYZULLO SATTOROVICH

Gulboyev Jumanazar Mamatkarimovich

Katayev Abdukarim Xidirovich

Ashurov Shuxrat Qaxramonovich

KILICHEV AKMAL TURABAYEVICH